

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

## TA'LIMDA TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'iy INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

**Mashrapova Mavluda Hasan qizi**

*Jizzax davlat Pedagogika universiteti, Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)  
mutaxassisligi 2-bosqich magistratura talabasi  
mashrapovamavluda231@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola sun'iy intellektning ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini o'rGANADI. O'tgan tadqiqotlar va lingvistlar hamda ta'lIM mutaxassislari tomonidan olib borilgan so'nggi innovatsiyalarni ko'rib chiqish orqali, sun'iy intellekt bilan qurollangan vositalarning bu ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqot, talabalar, asosan, ona tilida o'qitiladigan maktablarda ingliz tilini o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi, bu esa ularning tushunish qobiliyatini pasaytiradi.

Turli ta'lIM materiallari mavjud bo'lishiga qaramay, an'anaviy usullar ko'pincha talabalarni jalb qila olmaydi, ular darsliklarni zerikarli deb hisoblaydilar. Ushbu tadqiq ot sun'iy intellektdan foydalanish orqali o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatadi, bu esa ingliz tilida tinglash ko'nikmalarini o'qitishni qiziqarli va samarali qiladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, texnologiya, axborot kommunikatsiya vositalari, internet, tinglab tushunish, avtomatik tahlil.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья исследует эффективность использования искусственного интеллекта для развития навыков аудирования у студентов, изучающих английский язык как иностранный. Рассматривая предыдущие исследования и последние инновации, проведенные лингвистами и специалистами в области образования, подчеркивается важность инструментов, основанных на искусственном интеллекте, в развитии этих навыков. Исследование показывает, что студенты, особенно в школах, где обучение ведется на родном языке, сталкиваются с трудностями при изучении английского, что снижает их способность к пониманию.

Несмотря на наличие различных учебных материалов, традиционные методы часто не привлекают студентов, которые считают учебники скучными. Это исследование показывает, что использование искусственного интеллекта может значительно улучшить процесс обучения, что делает обучение навыкам аудирования английского языка более увлекательным и эффективным.

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, технологии, средства связи и информации, интернет, понимание на слух, автоматический анализ.

**ANNOTATION:** *this article investigates the effectiveness of using artificial intelligence for developing listening skills in students learning English as a foreign language. By examining previous research and recent innovations made by linguists and education specialists, it emphasizes the importance of AI-based tools in developing these skills. The study shows that students, particularly in schools where instruction is conducted in their native language, face challenges when learning English, which diminishes their comprehension abilities.*

*Despite the availability of various educational materials, traditional methods often fail to engage students, who find textbooks boring. This research demonstrates that the use of artificial intelligence can significantly enhance the learning process, making the teaching of English listening skills more engaging and effective.*

**Key words:** Artificial intelligence, technology, information and communication tools, internet, listening comprehension, automatic analysis

## KIRISH

Bizning zamонимиз texnologiya asosida rivojlanayotgan davrdir. Texnologiya hayotimizda juda muhim va zarur bo'lib, u charchamasdan va bahs-munozaralar qilmasdan xizmat ko'rsatadi. U hech qanday his-tuyg'ularga ega emas va barcha insonlar uchun neytraldir. So'nggi paytlarda, sun'iy intellekt (SI) bu texnologiyaga yangi imkoniyatlar qo'shdi. AI inson uchun do'st, maslahat beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida faoliyat yuritadi, uning qobiliyati esa har kuni oshib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) esa butun dunyodagi insonlar ishtirok etayotgan barcha sohalar haqida ma'lumot taqdim etadi. U tarmoq va operatsion ilovalar orqali, masalan, Google kabi qidiruv tizimlari yordamida samarali xizmat qiladi. Bu texnologiya insonlarga zamonaviy jamiyatning turli qiyinchiliklariga moslashishga yordam beradi va turli faoliyatlar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Texnologiya, shuningdek, bilim va ma'lumotlarga tezkor kirish imkonini berishi orqali, shaxsiy va professional rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Ularni to'g'ri qo'llash orqali insonlar o'z maqsadlariga erishish uchun zarur resurslarga osonlik bilan ega bo'lishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning umumiylara taraqqiyotiga olib keladi[1]. Bugungi kunda ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarni tez va samarali to'plash,yangi ma'lumotlarga ega bo'lish Internet va sun'iy intellekt tufayli birmuncha osonlashdi va bu o'tkan davrlarga qaraganda ko'proq ma'lumotlarga qisqa fursatda ega bo'lish imkoniyatini bermoqda. Hozirgi kundagi texnologiya vositalari, asosan, sun'iy intellekt (SI) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ijtimoiy jihatdan

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*II son, Yanvar*

asosiy ahamiyatga ega. Ushbu kommunikatsiya vositalari hozirgi davrni yanada qulaylashtirib, tezkor va zamonaviy ma'lumotlarni olish imkoniyatini berib, insonlarning shaxsiy hamda kasbiy o'sishiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Sun'iy intellekt, hozirgi kunda, insonlarga turli xil mavzularda to'g'ri yo'l yo'riqlar ko'rsatib insonlarning ishlarini birmuncha osonlashishiga sabab bo'lmoqda. Texnologiya vositalari shaxslarga hozirgi dunyoda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil muammolarga moslashishga ko'mak beradi va zamonaviy imkoniyatlar yarata oladi. Axborot kommunikatsiya vositalari insonlar orasida butun dunyo bo'ylab ma'lumotlar tarqalishini va aloqani ko'proq samarali qiladi.

Texnologiyaning o'tmishi va uning murakkablashish davrida insonlarga kerakli bo'lgan zamonaviy va turli imkoniyatlar kelib chiqdi. Hozirgi davrda sun'iy intellekt bilan turli jabhalarda maslahat va yo'l yo'riq beruvchi yordamchi sistemalar o'ylab topilmoqda. Ushbu tizimlar insonlar bilan unumli ishslash, ularga aniq yo'nalishlar ko'rsatish va kerakli ma'lumotlarni topib berish imkoniyatini beradi. Shuningdek, texnologiyaning rivojlanishi va insonlar tomonidan uning qo'llanilishi, ayniqsa, ta'lim sohasida, talabalarga bilim egallahda zamonaviy usullardan foydalanish imkoniyatini bermoqda. Zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari ko'magida dunyoning turli nuqtalarida turib internet orqali yangi va zamonaviy bilimlarni egallah osonlashdi. Bu imkoniyatlar, o'z navbatida, jamiyatda ilmiy va kasbiy rivojlanishga ulkan hissa qo'sha oladi.

Texnologiya vositalari tufayli "Internet" rivojlandi, bu, o'z navbatida, ma'lumotlarga ega bo'lish hamda kerakli bilimlarni egallah uchun mukammal va ishonchli uslubni beradi. Bu talabalar uchun topshiriqlarini tez va qulay bajarishga imkon beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar topshiriq va testlarni unumliroq topshirishlari mumkin, o'qituvchilar esa onlayn darslar tashkillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi, ushu usul esa umuman olganda yuqori samaradorlikka ega yo'ldir. Bugungi kunda talabalar raqamlashgan texnologiya davrida yashamoqdalar. O'qituvchilar uchun o'qitish jarayonini yanada osonlashtirish va samarali qilish uchun, o'quvchilarga tinglash ko'nikmalarini oson tushuntirishga qaratilgan dasturlarni topish va ularni amaliyotda unumli qo'llash muhim hisoblanadi. Dars mazmuni rasmli va qiziqarli tashkillashtirilishi lozim, va bu talabalar e'tiborini jalb qilgan holda darsda ma'lumot yetkazib berilishini osonlashtiradi. Berilgan mazmun, shuningdek, takroriylikni kamaytirishga hissa qo'shishi yoki uni butunlay bartaraf etishi lozim. Bunday takroriylik shu paytgacha an'anaviy ta'lim uslubining asosiy kamchiliklaridan biri bo'lib kelgan va hozir ham shundayligicha qolmoqda.

### **Tinglab Tushunish Ko'nikmasi va Uning Ahamiyati**

Tinglab tushunish, faqatgina nutqni tinglash emas, balki tinglangan ma'lumotni analiz qilish hamda ma'lumotga asoslangan holda xulosa qilishdir. O'qib o'rganish jarayonida

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

ushbu qobiliyat muhim hisoblanadi, sababi tinglovchi eshitgan materialni anglab, ma'lumotni shaxsiy bilimiga birlashtirish orqali o'rganishi kerak. Ushbu qobiliyatning o'sishi, asosan, ma'lumotlarni o'qish, audiosavollarga javob berish, ingliz tilida muloqot qilish hamda shu kabi faoliyatlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tinglab tushunish qobiliyatlarini o'stirish uchun, sun'iy intellekt vositalari o'rganuvchilarga bir qancha muhim ko'nikmalarini beradi. Natural Language Processing (NLP)-tabiiy til jarayoni texnologiyalari yordamida tinglangan nutqni tahlil qilish, berilgan matnni tushunish va bu materiallarga asoslangan holda javoblar topish imkoniyatlari hosil bo'ladi. Suniy Intellekt texnologiyalari talabalarni olingan mavzu va fan sohasida eng ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashga hissa qo'shadi.

### Sun'iy Intellektning Ta'limga Qo'llanilishi

Hozirgi davrga kelib, Sun'iy intellektdan ta'limga sohasida hoydalanish kengayib bormoqda. Talabalarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun SI texnologiyalarining unumli foydalanish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Natural Language Processing (NLP): Ushbu texnologiya nutq va ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalaniadi. NLP yordamida o'quvchilar nutqni yaxshiroq eshitib, unga aniq va to'g'ri javoblar berishni o'rganishadi. Misol uchun, o'quvchi matnni o'qish mobaynida nutqni anglab olish hamda uning ma'nosini tushunish uchun avtomatik tahlil qilish tizimidan samarali foydalana olishi mumkin.

Speech Recognition (Nutqni tanib olish): Suniy Intellekt yordamida talabalar nutqni tahlil qilishadi va eshitgan ma'lumotlarni mukammal tushunishadi. Ushbu texnologiya talabalarning ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashishiga va foydali bo'lishiga ko'maklashadi.

Adaptive Learning (Moslashuvchan o'qish): Suniy Intellekt tizimlari o'rganuvchilarning bilim darajasini aniqlab baholashga hamda ularning o'zlashtirish jarayoniga kerakli bo'lgan ta'limga materiallarini topib berishda ko'maklashadi. Ushbu jarayonda, o'quvchilar o'zlarining xato va kamchiliklarini anglab yetgan holda o'qish jarayonini o'zlari uchun mos shaklga keltirishlari mumkin.

### Sun'iy intellektdan ta'limga tizimida unumli foydalanish yondashuvlari

Sun'iy intellektdan ta'limga sohasida talabalarning tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi unumli foydalanish metodlari quyidagilardan iborat:

Bular Intellektual o'quv yordamchilari bo'lishi mumkin, masalan, virtual yordamchilardan biri hisoblangan ChatGPT, o'rganuvchilarga oson va tez yordam beradi. Ushbu tizimlar o'quvchilarga o'qish jarayonida o'zlarini qiziqtirgan savollarni sun'iy intellektdan so'rash, mavjud ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish hamda zarur manbalarni topishda

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*II son, Yanvar*

ko'maklashadi. Bunday yordamchilar talabalarga faqatgina ma'lumotlarni o'rganishda emas, balki tinglash va tushunish qobiliyatlarini keyingi pog'onaga olib chiqishlarida ham foydali hisoblanadi.

Interaktiv o'quv dasturlari: Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv o'quv manbalarini yaratish osonlashadi. O'quvchilar video yoki audio manbalar yordamida tinglab tushunish ko'nikmalarini keyingi darajaga olib chiqishlari mumkin. Masalan, interaktiv ma'lumotlar, testlar, matnli audio hamda video materiallar o'quvchilarga tinglash va tushunish ko'nikmalarini o'stirishda yordam berishi mumkin.

**O'qituvchilar uchun avtomatik tahlil tizimlari:** Sun'iy intellekt yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini baholashlari mumkin. Misol uchun, avtomatik tahlil sistemalari o'quvchilarning yozma va og'zaki javoblarini baholashda ishlatalishi mumkin va bu samarali hamda kam vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ushbu tizimlar o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

### **Sun'iy Intellektning Afzalliklari va Kamchiliklari**

Afzalliklari:

Unumдорлик ва кам ваqt sarflash: Sun'iy intellekt tizimlari talabalarni individual usulda baholash hamda ularning bilim darajasini tezroq aniqlab berish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'qituvchilarga vaqtini tejash va foydali resurslarni ko'proq ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Individual yondashuv: Moslashuvchan o'rganish texnologiyalari har bir talaba uchun alohida yondashuvni ta'minlab beradi, bu xususiyat talabalarning tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim usul hisoblanadi.

Texnologik yondashuv: Sun'iy intellekt talabalar uchun yanada interaktiv va qiziqarli materiallar yaratishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarga tinglab tushunishni o'rganishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Kamchiliklari:

Texnik xatoliklar: Sun'iy intellekt tizimlari ba'zi holatlarda xatoliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlar esa o'quvchilarga noqulayliklar tug'diradi.

O'qituvchining roli: Sun'iy Intellekt texnologiyalaridan haddan tashqari ko'p foydalanish o'qituvchining pedagogik faoliyatini susaytirishi mumkin. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarga yordam berish roli muhim hisoblanadi.

O'zlashtirishdagi cheklolvar: Ko'pgina o'rganuvchilar uchun sun'iy intellekt tizimlari qiyin hamda tushunishga qiyin bo'ladi, bu omil ularning o'zlashtirish jarayonini sekinlashishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

## **TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR**

*II son, Yanvar*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limda o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatlarini o'stirishda foydali usuldir, bu esa ta'lim jarayonini ko'proq interaktiv hamda individuallashgan bo'lishiga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar talabalarga o'qish hamda tushunish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati bundanda kengayib borishi kutilmoqda. Hozirda, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda sun'iy intellektni ta'lim sohasida joriy qilish imkoniyatlari va yo'nalishlari juda keng hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Korman, M., & Meyer, B. (2022). Artificial Intelligence in Education: The Challenges of Integration. Springer.
2. Bostrom, N. (2017). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.
3. Albrecht, J., & Hughes, D. (2021). Technological Advances in Education: The Role of AI and Machine Learning. Academic Press.
4. Kivistö, J., & Laukkanen, T. (2021). AI in Learning and Education. Routledge.
5. Johnson, M., & Clark, R. (2019). Artificial Intelligence in Higher Education: Implementations and Implications. Elsevier.
6. Salvatier, J., & Villani, M. (2020). Artificial Intelligence and Human Learning: Exploring the Intersection. Cambridge University Press.
7. Hasan, R., & Mathew, L. (2021). Applications of Artificial Intelligence in Education: Theory and Practice. Wiley.
8. Shulman, L., & Gray, J. (2020). Artificial Intelligence in Classroom Education. Palgrave Macmillan.
9. Siemens, G. (2020). Learning Analytics and Educational Data Mining. Springer.
10. Liu, W., & Liu, S. (2021). AI in Modern Education: Applications and Case Studies. Springer.
11. Zhang, X. (2019). Adaptive Learning Systems: Artificial Intelligence in Education. Wiley-Blackwell.
12. Zhao, Y. (2020). Educational Technologies and AI in Teaching and Learning. IGI Global.
13. Park, Y., & Lim, C. (2021). Artificial Intelligence for Learning and Education. Springer.
14. Evans, R., & Morrison, S. (2021). AI in Education: Perspectives, Technologies, and Practices. Routledge.